

Axmedov Jalol Tursunmuratovich

Jizzax politexnika instituti, "Ijtimoiy fanlar" kafedrası assistenti

A.G.Essimova

M.Auvezov nomidagi Janubiy Qozog‘iston universiteti katta o‘qituvchisi

**MARKAZIY OSIYO XALQLARI TARIXI BO‘YICHA
YONDASHUVLARNING BA‘ZI JIHATLARI (QOZOG‘ISTON
MISOLIDA)**

Annotatsiya: Ko‘p millatli Markaziy Osiyo etno-siyosatining muhim jihatlari haqida fikr-mulohazalar haqida so‘z borganda, qadim zamonlardan buyon yashovchi etnik guruhlar va elatlar o‘rtasida madaniy, iqtisodiy, siyosiy munosabatlar vujudga kelganligini ko‘rish mumkin. Mintaqaning etnik xaritasi uzoq vaqtlar davomida deyarli o‘zgarmasdan kelishi millatlararo munosabatlar jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: tarix, millat, elat, millatlararo munosabatlar, Avesto, titul millat, o‘troq, ko‘chmanchi, Kushon, turklar, arablar, mo‘g‘ullar, xonliklar, milliy siyosat.

Akhmedov Jalal Tursunmuratovich

Jizzakh Polytechnic Institute, assistant of the "Social Sciences" department

A.G. Essimova

Senior teacher of South Kazakhstan University named after M. Auvezov

**SOME ASPECTS OF APPROACHES TO THE HISTORY OF THE
PEOPLES OF CENTRAL ASIA (IN THE CASE OF KAZAKHSTAN)**

Abstract: When it comes to opinions about the important aspects of multi-ethnic Central Asian ethno-politics, it can be seen that cultural, economic and political relations have been established between ethnic groups and peoples living since ancient times. The fact that the ethnic map of the region has remained almost unchanged for a long time is of particular importance in the process of inter-ethnic relations.

Key words: history, nation, people, inter-ethnic relations, Avesta, title nation, settlement, nomad, Kushan, Turks, Arabs, Mongols, Khans, national politics.

Markaziy Osiyo davlatlari o‘z milliy mustaqilligini qo‘lga kiritgan ilk yillardan boshlab, ya’ni yaqin chorak asrdan ortiq vaqt mobaynida har bir respublikada o‘ziga xos “milliy tarix” yaratish tamoyillari o‘rin oldi. Bu tamoyilga ko‘ra, ulardan har biri mintaqada eng qadimgi xalq bo‘lib, ilk davlatchilik, ilk shaharlar, buyuk sulolalar, moddiy va ma’naviy madaniyat, mashhur tarixiy shaxslar faqatgina ulardan biriga tegishlidir. Bunday yondashuvlar ustuvor jihatlarini shartli ravishda quyidagi jadvalda qisqacha keltirib o‘tamiz:

№	Respublika nomi	Etnik mansublikka munosabat	Qadimiyatiga munosabat	“Oltin davri”
1	Qozog‘iston	Turkiylar, biroq turkiy sulolalardan ko‘ra qozoq xonliklari muhim	Qang‘ va Uzun (mil.avv. II – mil. III asr.) qozoq urug‘lari orasida saqlanib qolgan.	Jo‘ji ulusi va qozoq xonliklari (1456-18)

Yuqorida keltirib o‘tilgan bunday yondashuvlarning shakllanishida qanday omillar ta’sir qilgani va nega aynan keyingi 30 yil ichida shunday kayfiyatlar paydo bo‘lgani masalasini tahlil qilishdan oldin shuni aytib o‘tish kerakki, mintaqa respublikalarining barchasida bunday qarashlarga to‘laqlik qo‘shilmagan, tanqidiy yondashgan va hatto qarshi chiqqan olimlar ham bor. Biroq, bunday kayfiyatdagi tadqiqotchilar nisbatan kamchilikni tashkil etib, ko‘pchilik tarixchi va jamiyatshunos olimlar orasida yuqorida keltirib o‘tilgan yondashuvlar ustuvorlik qiladi. SHu o‘rinda avvalo, qozoq olimlari orasida ustuvor bo‘lgan yondashuvlarning mazmun-mohiyatiga to‘xtalib o‘tamiz.

Jadvalda Qozog‘iston bilan bog‘lab keltirilgan yondashuvlarning negizida ham birmuncha realliklar bor. Qozoq tarixchi va boshqa ijtimoiy soha vakillari

“qozoq” etnonimi birmuncha kech davrda – oʻrta asrlarda paydo boʻlganiga eʼtibor qaratsalar-da, oʻzlarining etnik kelib chiqishida qadimgi turkiy elatlar, xususan, qipchoq qabilalarining oʻrni katta boʻlganiga urgʻu qaratishadi. SHuningdek, qozoqlar hozirgi Qozogʻistonning tubjoy aholisi boʻlganini isbotlash maqsadida ushbu hududda yashab oʻtgan Qangʻ davlati (mil.avv. III – mil. III asrlar), Uzun qabilalar ittifoqi nomlarini “qangli”, “uysun” kabi qozoq urugʻlari bilan bogʻlashga harakat qila boshlashdi [1]. SHu oʻrinda aytib oʻtish kerak, “qangli” yoki “qangʻli” kabi etnonimlar faqatgina qozoqlar tarkibida emas, oʻzbek, noʻgʻoy, qirgʻiz kabi turkiy xalqlarda ham uchrab [2], ularni birgina qozoqlar bilan bogʻlash yaramaydi.

SHuningdek, “uyshun”, “uysun” kabi etnonimlar ham oʻzbek, qirgʻiz va hokazo kabi turkiy xalqlar tarkibida etnonim va etnotoponim shaklida saqlanib qolgan. Qolaversa, qadimgi Qangʻ yoki Qangʻuy davlati nomi bilan undan ming yil keyin, yaʼni CHingiziylar davrida etnosiyosiy jarayonlarda faol ishtirok eta boshlagan “qangʻli” urugʻini tenglashtirsa boʻladigan yozma dalillar deyarli mavjud emas. SHunga oʻxshab, aslida “uysin” emas, “uyshun” shaklida uchrab [3], qadimgi Uzun qabila ittifoqi nomi bilan aloqadorligi mavhum boʻlgan atamani qozoq davlatchiligi bilan bogʻlash ham ilmiy tomondan oʻzini oqlamaydi. SHu oʻrinda aytib oʻtish kerak, qadimgi “usun” atamasi faqatgina xitoy yilnomalarida uchrab, xitoylik mualliflar uni shu shaklda berishgan [4]. YAʼni ushbu atamaning asl mahalliy shakli qanday boʻlgani ham aniq emas.

Keyingi yillarda qozoq jamoatchiligi orasida Joʻji ulusini qozoq davlatchiligining “oltin davri” sifatida qarash anchagina kuchayayotgani koʻzga tashlanadi [5]. Bunday davrlardan yana bir Qozoq xonliklari (1456-1847) davrini qozoq davlatchiligi uchun muhim bir bosqich sifatida baholash mumkin, biroq Joʻchi ulusi yoki Oltin Oʻrda (XIII – XV asrlar) davlatini qozoqlar bilan toʻgʻridan-toʻgʻri bogʻlab boʻlmaydi. Birinchidan, bu davlatga CHingiziylar, yaʼni moʻgʻullar asos solgan boʻlsa, ikkinchidan, bu davlatni tatar, boshqird, noʻgʻoy, qoraqalpoq va hatto oʻzbeklar ham oʻz davlatchiligining biror pallasi

sifatida qarashga haqlidirlar. Chunki, Oltin O‘rdadan keyin tarix sahnasiga chiqqan bir qator turk-mo‘g‘ul uluslari – Abulxayrxon O‘rdasi (O‘zbek ulusi – 1428-1468), No‘g‘oy o‘rdasi (XV – XVII asrlar), Qrim xonligi (1443-1783), Qozon xonligi (1438-1552), Sibir xonligi (1495-1598) va Qozoq xonliklari (1465-1847) boshqaruvida turk-mo‘g‘ul qonunchilik an‘analariga rioya qilinib, ularda yashagan turkiy aholi keyinchalik tatar, boshqird, qozoq, qorafalpoq, no‘g‘oy va ko‘chmanchi o‘zbek aholisining etnik shakllanishida muhim o‘rin tutgan [6].

SHu o‘rinda aytib o‘tish kerak, jahon amaliyotining tajribasi ma’lumki, har qanday davlat, ayniqsa mustaqil taraqqiyot yo‘liga kirgan mamlakatlar xorij bilan hamkorlik aloqalarisiz rivojlana olmaydi. Aksincha, har bir mamlakat mustaqil taraqqiyot yo‘lini jahon hamjamiyatiga ko‘shilish orqali mustahkamlaydi. SHu ma’noda jahon mamlakatlarining integratsiyalashuvi bugungi global geosiyosiy, geomadaniy jarayonlar tez kechayotgan bir sharoitda o‘ta muhim bo‘lib, yangilanayotgan mintaqa respublikalaridagi ijobiy o‘zgarishlar jahon mamlakatlarining mintaqa tarixiga bo‘lgan qiziqishini tobora oshirmoqda.

Markaziy Osiyo xalqlari tarixining qadimgi davr, ilk o‘rta asrlar, rivojlangan o‘rta asrlar va so‘nggi o‘rta asrlar kabi tadrijiy bosqichlarini o‘rganishda bugungi kun jahon tarixshunosligida bo‘lsin yoki mintaqaning mahalliy tarixchilari bo‘lsin turlicha yondashayotganligi ko‘zga tashlanadi. Boshqa paragraflarda ham bir necha bor to‘xtalib o‘tilganidek, Markaziy Osiyo xalqlari tarixi bo‘yicha izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilarni quyidagicha guruhlariga bo‘lish mumkin: 1) YOzma manbalar va arxeologik materiallarga murojaat qilgan holda ilmiy etika, ob‘ektivlik, haqqoniylikka rioya qiluvchi tadqiqotchilar; 2) Bunday manbalardan foydalanayotgan, biroq ko‘proq o‘zining milliy tarixini yoritishga intilayotgan izlanuvchilar; 3) Manbalardan foydalangan, biroq ularni o‘z manfaatlariga moslashtirib, tarixiy voqeliklarga biryoqlama yondashib, noxolislikka yo‘l qo‘yayotgan tadqiqotchilar; 4)

Manbalarga deyarli murojaat qilmasdan yoki biryoqlama yondashgan holda o'z xalqining tarixini yanada "qadimiy" va "buyuk" qilib ko'rsatishga intiladigan tadqiqotchilar.

Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyo xalqlari tarixi bo'yicha turlicha yondashuvlar vujudga kelishi, ularning o'zaro o'xshash va farqli tomonlarini ayrim jihatlar asosida ko'rib chiqish shuni ko'rsatdiki, mintaqadagi har bir respublikada hududga nisbatan yondashuvda turlichalik, umumiylikdan ko'ra ko'proq o'ziga xoslikka e'tibor qaratish, o'zining milliy tarixi va milliy qahramonlariga ko'proq urg'u berish, ayrim tarixiy sulolalarni bosqinchi qilib ko'rsatish, ayrim sulolalar tarixini bo'rttirib ko'rsatish kabi holatlar ko'zga tashlanadi. SHundan kelib chiqib aytish mumkinki, mintaqada millatlararo munosabatlarni o'rganish dolzarbligini ko'rsatmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ирмуханов Б.Б. Усунь и этногенез казахского народа. – Алматы: «Наш Мир», 2006; Алпысбес М.А. Шежире казахов: источники и традиции.– Астана, ИП «BG-Print», 2013. – С. 15, 23, 50, 125, 176.
2. Султанов Т.И. Опыт анализа традиционных списков 92 «племен иланий» // Средняя Азия в древности и средневековье. – М.: Наука, 1977. – С. 165-176; Трепавлов В.В. История Ногайской Орды./ Отв. ред. М. А.
3. Усманов. 2-е изд., испр. и доп.– Казань: Издательский дом «Казанская недвижимость», 2016. – С. 487. Трепавлов В.В. История Ногайской Орды. – С. 494.
4. Бичурин Н. Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. В 3-х томах. –М. - Л.: Изд. АН СССР, 1950. Том II. – С. 190.
5. Тарихи тўлғалар. Танымдық - көпшілік басылым. Мектеп жасындағы оқушылар мен көпшілікке арналған. Құрастырушы: Тоғысбаев Б. Сужикова А. – Алматы. "Алматы кітап баспасы", 2009.

6. Ахмедов Б.А. Историко-географическая литература Средней Азии. XVI – XVIII вв. Письменные памятники / Б.А. Ахмедов. – Ташкент: Фан, 1985. – С. 8-9; Исхаков Д.М. Тюрко-татарские государство XV – XVI вв. – Казань: Инс-т История им. Ш. Марджани, 2004. – С. 8-21.